



ILMIY ELEKTRON JURNAL

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILOTLARNING BOSHQARUV BIZNES MODELINI QAYTA SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Madyarova Muxlisa Abdulla qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Raqamli iqtisodiyot kafedrasи
assistenti

muxlisamadiyorova@gmail.com

Rustamova Ziyoda Anvar qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Raqamli iqtisodiyot kafedrasи
assistenti

ziyorustamova9999@gmail.com

Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Raqamli iqtisodiyot kafedrasи
assistenti

g.mirziyodova@tsue.uz

Annotation

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida tashkilotlarning boshqaruv biznes modelini qayta shakllantirish zaruriyati, imkoniyatlari va asoslari tahlil qilingan. Maqolada raqamli texnologiyalar, katta ma'lumotlar (Big Data), raqamli infratuzilma, raqamli xizmatlar va raqamli innovatsiyalarning tashkilot faoliyatiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy tajribalarga asoslanib, korxonalar boshqaruvida raqamli yondashuvlarni qo'llashning ilmiy-amaliy jihatlari bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье рассмотрена необходимость и основы трансформации управлеченческих бизнес-моделей организаций в условиях цифровой экономики. Анализируются влияние цифровых технологий, больших данных (Big Data), цифровой инфраструктуры и цифровых услуг на деятельность организаций. Также на основе отечественного и зарубежного опыта обоснованы научно-практические подходы к внедрению цифровых решений в систему управления предприятий.

Annotation

This article explores the need and foundations for reshaping management business models of organizations in the context of the digital economy. It examines the impact of digital technologies, big data, digital infrastructure, and digital services on organizational performance. Based on international and local experiences, the study outlines scientific and practical approaches to the implementation of digital solutions in enterprise management systems.

Kalit so‘zlar

raqamli iqtisodiyot, boshqaruv modeli, raqamli transformatsiya, katta ma’lumotlar, innovatsiyalar, infratuzilma, raqamli xizmatlar, strategik boshqaruv.

Ключевые слова

цифровая экономика, модель управления, цифровая трансформация, большие данные, инновации, инфраструктура, цифровые услуги, стратегическое управление.

Keywords

digital economy, management model, digital transformation, big data, innovations, infrastructure, digital services, strategic management.

Kirish

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida tashkilotlarning barqaror va samarali faoliyat yuritishi uchun ularning mavjud boshqaruv modellari doimo takomillashib borishi va yangi texnologik shart-sharoitlarga mos ravishda transformatsiyalanishi talab qilinadi. Boshqacha aytganda, tashkilotlarning muvaffaqiyatli ishlashi endilikda faqat ichki resurslar va odatiy menejment uslublariga emas, balki global raqamli tendensiyalarni o‘z vaqtida anglab, ularni amaliyotga joriy eta olish qobiliyatiga ham bevosita bog‘liq bo‘lib bormoqda.

Bugungi kunda sun’iy intellekt (AI), katta ma’lumotlar tahlili (Big Data), bulutli texnologiyalar (cloud computing), raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari tashkilotlar faoliyatining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Bu texnologiyalar nafaqat mehnat unumдорligini oshirish, balki strategik qarorlar qabul qilish, bozor kon'yunkturasini prognozlash, iste'molchi xatti-harakatlarini o‘rganish, va mahsulot yoki xizmatni joylashtirishda ham ustunlik beradi. Shu sababli, tashkilotlar oldiga innovatsion yondashuv asosida yangi muammolarni hal qilish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardoshlikni saqlab qolish kabi dolzarb vazifalar qo‘ymoqda.

Mazkur o‘zgarishlar fonida tashkilotlarning strategik, operatsion va innovatsion boshqaruv modellarini qayta ko‘rib chiqish va zamon talablari asosida ularni moslashtirish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Avvalgi yillarda boshqaruv asosan vertikal (yuqorida pastga) va statik strukturalarga asoslangan bo‘lsa, hozirda esa gorizontal, moslashuvchan va tezkor axborot oqimiga asoslangan modellar dolzarblik kasb etmoqda. Innovatsion boshqaruvga urg‘u berish esa tashkilotning faqat bugungi emas, balki ertangi kun ehtiyojlarini ham oldindan ko‘ra olishiga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Zamonaviy boshqaruv amaliyotida katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish masalalari nafaqat xorijiy, balki o'zbek mutaxassislarini tomonidan ham keng tadqiq etilmoqda. Bu texnologiyalar korxona faoliyatini strategik boshqarish, marketing qarorlarini qabul qilish va yangi bozorlarga chiqishda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Masalan, Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti olimlari V.A. Boburin va M.E. Yanenko Big Data texnologiyalarining xizmatlar bozorini rivojlanirish istiqbollarini chuqur tahlil qilganlar. Ular korxonalar raqobatbardoshligini oshirish maqsadida katta ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganib, innovatsion rivojlanish uchun marketing strategiyalariga Big Data asosida yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Bu tavsiyalar xizmatlar bozorida samarali natijalarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi [1].

Shuningdek, K. Close, S. Meier va M. Ringel (2015) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, farmatsevtika sanoati misolida geotahliliy yondashuv orqali savdo strategiyalarini va yangi bozorlarga kirish bosqichlarini optimallashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Ularning fikricha, ushbu sohadagi korxonalar boshqaruv va sotuv jarayonlariga o'rtacha daromadning 20–30 foizini sarflaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, eng daromadli va tez rivojlanayotgan bozorlarni Big Data yordamida aniqlash orqali xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish mumkin [2].

AQShlik tadqiqotchi S.R. Das esa katta ma'lumotlar texnologiyasi iqtisodiyot va siyosiy tizimlarga tez orada chuqur ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. U kredit reyting agentliklari misolida, sun'iy intellekt va neyron tarmoqlar orqali inson aralashuviz statistik usullar yordamida iqtisodiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash tajribasini keltirib o'tgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning metodologik asoslari raqamlı iqtisodiyotning tarkibiy xususiyatlari, transformatsion jarayonlarning dinamikasi va raqamlı texnologiyalarning tashkilotlar boshqaruv tizimiga ta'sirini tahlil qilishga yo'naltirilgan. Tadqiqotda tizimli, funksional va kompleks yondashuvlar qo'llanildi. Bu yondashuvlar yordamida tashkilotning mavjud boshqaruv modeli raqamlı iqtisodiyot talablariga mos ravishda baholandi va yangicha yondashuv asosida takomillashtirish yo'llari ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Texnologiyalarning rivojlanishi bilan moliya va biznes uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlar hajmi geometrik progressiyada ko'payib bormoqda. Uni boshqaruvida mavjud usullari bunday hajmni uddalay olmadi, shuning uchun boshqaruvda katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qila oladigan maxsus algoritm va usullar talab qilindi.

Turli tarmoqlarda ulangan qurilmalar sonining tez o'sishi va raqamlı transformatsiya rivojlanishi katta ma'lumotlarning ortishiga hissa qo'shamoqda va bu raqamlı iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi tashkilotlar boshqaruvda muammolar keltirib chiqarmoqda. Katta ma'lumotlar 2024 yilda har kuni 2,5 kvintillion bayt ma'lumotlar yaratiladi. 2024 yilda dunyo bo'ylab 147 zettabayt ma'lumotlar yaratilishi kutilmoqda. Ya'ni bu yil o'tgan yilga nisbatan 27 zettabayt ko'p ma'lumot

ishlab chiqariladi. Bu butun dunyo bo‘ylab ma’lumotlarni ishlab chiqarish hajmining 22,5% ga o‘sishini anglatadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tashkilotlar an'anaviy modeldan raqamli modelga o’tish orqali quyidagi ustunliklarga ega bo’ladi:

- ✓ Qaror qabul qilishda real vaqtida ma'lumotlardan foydalanish;
- ✓ Xarajatlarni optimallashtirish va operatsion samaradorlikni oshirish;
- ✓ Mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlar ko'rsatish va bozordagi moslashuvchanlik;
- ✓ Masofaviy ish yuritish va avtomatlashtirish orqali resurslardan unumli foydalanish.


1-jadval

Raqamli iqtisodiyotning tashkilot boshqaruviiga ta'sir omillari

| Omil | An'anaviy model | Raqamli model |
|-----------------------------------------|-----------------------------|----------------------------------------|
| Ma'lumotlar asosidagi boshqaruvi | Intuitsiyaga asoslangan | Real vaqtli analitika |
| Ish jarayoni | Qo'l mehnatiga asoslangan | Avtomatlashtirilgan tizimlar |
| Aloqa | Rasmiy va kechikkan | Tezkor va onlayn |
| Innovatsiya | Sezilarli vaqt talab qiladi | Tez joriy etiladigan raqamli yechimlar |

Tashkilot boshqaruvi uchun zamonaviy model quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

- raqamli strategiya: raqamli texnologiyalarning asosiy yo'nalishlar va maqsadlar bilan integratsiyasi;
- texnologik infratuzilma: IT-platformalar, bulutli servislar va tarmoq xavfsizligi;
- axborot va ma'lumotlar boshqaruvi: Big Data va analistik vositalar orqali qarorlarni asoslash;
- kadrlar salohiyati: raqamli kompetensiyalarga ega mutaxassislar tayyorlash va ularni boshqaruva jarayoniga jalb qilish.



1-rasm. O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari sonining o‘sishi (2020-2024 yy.)

Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar raqamli transformatsiya bo'yicha ilg'or tajribaga ega. Masalan, Estoniyada davlat xizmatlarining 99% onlayn ko'rinishda taqdim etiladi. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

Elektron hukumat tizimini kengaytirish;
Internet qamrovini yaxshilash;
AKT sohasida kadrlar tayyorlashga sarmoya kiritish;
Raqamli to'lov va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish.

Global raqamli iqtisodiyot sharoitida mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi yetakchi kompaniyalar o'z biznes modellarini doimiy ravishda takomillashtirmoqda. Ushbu jarayon, raqamli texnologiyalar, mijozlar ehtiyojlarining tez o'zgarishi hamda yangi raqobat muhitiga moslashish zaruriyati bilan belgilanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jahon yetakchilarining muvaffaqiyati ularning o'z faoliyat strategiyasiga moslashtirilgan, moslashuvchan va innovatsion biznes modellardan foydalanganligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Xulosa va takliflar

Raqamli iqtisodiyotda tashkilotlarning boshqaruvi biznes modelini qayta shakllantirish nafaqat raqobatbardoshlikni ta'minlaydi, balki ularning uzoq muddatli barqaror o'sishini ham kafolatlaydi. Raqamli strategiyaning mavjudligi, texnologik infratuzilmaning rivojlanganligi va kadrlar salohiyatining oshirilishi — zamonaviy biznes boshqaruvining asosiy omillardir. O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishdagi islohotlarni jadallashtirish raqamli iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda iqtisodiy jarayonlar dinamikasi raqamli iqtisodiyot sohasida katta ma'lumotlar texnologiyalarining faol rivojlanishi va joriy etilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Mahalliy texnologiyalarni rivojlantirish va import o'rnini bosish dasturini amalga oshirishga qaratilgan davlat qo'llab-quvvatlovi texnologik suverenitetni ta'minlash, shuningdek, davlat, biznes va jamiyat sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirish orqali iqtisodiy o'sish maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi innovatsion, texnologik va infratuzilma yechimlarini shakllantirishni rag'batlantiradi.

Shu munosabat bilan, raqamli iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi tashkilotlarning boshqaruvi biznes modelini konseptuallashtirish texnologiyalari O'zbekiston iqtisodiyoti sektorini transformatsiya qilish va izchil rivojlantirishda tobora muhim integratsiyalashgan rolni bajarib bormoqda. Bu esa amaliy nuqtai nazardan iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini yaratib, boshqa istiqbolli raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish uchun mustahkam platforma vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Однцова Т.М. (2021) Бухгалтерский учет: развитие и трансформация в контексте вызовов современности // Международный бухгалтерский учет. № 10.
- Чумакова Н.Ю. (2020) Цифровая экономика: тренды, риски, решения // Вестник экономики и управления, №3.
- Tapscott, D. (2014). The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. McGraw-Hill Education.

4. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age. W.W. Norton & Company.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoni — "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
6. By Naveen Kumar // Big Data Statistics 2025: Growth and Market Data// Адрес: <https://www.demandsage.com/big-data-statistics/>
7. В.Л. Абашкин, Г.И. Абдрахманова, К.О. Вишневский, Л.М. Гохберг и др. Индикаторы цифровой экономики: 2024: статистический сборник // Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». – М : ИСИЭЗ ВШЭ, 2024. – 276 с.
8. Osterwalder, A., & Pigneur, Y. (2010). Business Model Generation: A Handbook for Visionaries, Game Changers, and Challengers. John Wiley & Sons.
9. <http://www.consulting.ru/> К.Тумай. Имитационное моделирование бизнес-процессов. Как отображаются характеристики процессов при моделировании.
10. Kell, S., & Lacy, S. (2010). The Walmart Effect: How the World's Most Powerful Company Really Works – and How It's Transforming the American Economy. Penguin Group.
11. "The Everything Store: Jeff Bezos and the Age of Amazon" (2013) – Brad Stone
12. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Faberlic>
13. Иванов, И. А., & Петров, В. С. (2019). Бизнес-модели и стратегии оптимизации затрат в современных компаниях. Москва: Экономика и бизнес.
14. Стефанин, В. (2020). Цифровой век и трансформация бизнес-моделей. Санкт-Петербург: Бизнес и инновации.
15. Иванова, Т. С. (2021). Цифровые экономические отношения и формирование ценностных предложений. Москва: Бизнес и цифровые инновации.